

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3--SON  
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>N.A.Abdualiyeva</b>	
Markaziy Osiyo o'rtta paleolit manzilgohlarining fanda o'rganilishi tarixi (I qism) .....	654
<b>A.A.Nishonov</b>	
Farg'ona vodiysida Sevinchxojaxon va Sulton Saidxon kurashi .....	664
<b>A.A.Aloxunov, B.B.Jo'raqulov</b>	
Tunkat tarixi yozma va arxeologik manbalarda .....	673
<b>A.A.Nishonov</b>	
Sevinchxojaxon xonadoni tarixi manbalarda yoritilishi .....	677
<b>R.X.Akbarov</b>	
Turkiston yevropalik aholi vakillarining davlat dumasidagi ishtiroki .....	681
<b>R.X.Akbarov</b>	
Turkiston mahalliy vakillarining davlat dumasidagi ishtiroki .....	685
<b>S.V.Yo'ldoshev</b>	
Xalq o'yinlarining tarixiy ildizlari va lokal xususiyatlari .....	691
<b>A.M.Maxmudov</b>	
XX asrning 20-30 yillarda Buxoro amirligi muhojirlari taqdiri .....	695
<b>A.M.Maxmudov</b>	
Usmon Xo'ja avlodlari qayerda? .....	698

#### ADABIYOTSHUNOSLIK

<b>K.A.Topvoldiyev</b>	
Use of antonyms in Russian fiction and in religious self-consciousness .....	701
<b>H.K.Sabirov</b>	
Средняя Азия в путевых заметках Ф.С.Ефремова .....	706
<b>A.P.Kosimov</b>	
Конвергенции наследия Т.Мурода с духовным богатством национальной и мировой культуры .....	710
<b>H.A.Jo'rayev, Y.I.Nishanov</b>	
Yusuf qissasi syujetining sayyorlik omillari .....	715
<b>H.M.Karimova</b>	
Отражение времени: концепция исторического романа в литературе .....	718
<b>Y.I.Nishanov</b>	
Umuminsoniy g'oyalar ifodasida ijodiy ta'sirning o'rni .....	722
<b>I.H.Doroina</b>	
«Отражение современных социальных реалий в современной Русской литературе» .....	726
<b>Э.Ф.Гиздулин</b>	
Мотив пандемии в художественной постапокалиптической фантастике .....	729
<b>X.Sharifiddinov</b>	
Zamon qiyofalangan tarixiy roman .....	732
<b>E.Ibragimova, N.Sharafutdinova</b>	
Teonimik tushuncha ifodalovchi mifologik obrazlar .....	735
<b>G.V.Abdullayeva</b>	
Lof she'rlar poetikasi va badiiy-estetik funksiyasi .....	738
<b>S.A.Xodjayev, Ch.I.Turg'unova</b>	
O'zbek va jahon folklori namunalarida uchlik va beshlik timsollarining poetik kombinatsiyalari .....	745
<b>X.A.Abdulxamidova, D.U.Jamoliddinova</b>	
Isajon Sulton hikoyalarida peyzajning badiiy ifodalanishi .....	749
<b>X.J.Jamolova</b>	
Zullisonaynlik an'anasi va ijodiy ta'sir masalalari .....	752
<b>M.M.Xamidov</b>	
O'zbek tarixiy romanlarida qahramon talqini masalasiga doir .....	755
<b>R.M.Umurzakov</b>	
Bola obrazining nazariy muammolari .....	761
<b>J.B.Sayidolimov</b>	
"Vasiyatnoma" – kichik agiografik asar .....	765



UO'K: 8-1+808

## LOF SHE'RLAR POETIKASI VA BADIY-ESTETIK FUNKSIYASI

ПОЭТИКА И ХУДОЖЕСТВЕННО-ЭСТЕТИЧЕСКАЯ ФУНКЦИЯ  
НЕПРАВДОПОДОБНЫХ ДЕТСКИХ СТИХОВ

## POETICS AND ARTISTIC-AESTHETIC FUNCTION OF PRAISE POEMS

**Gulnoza Voxidjonovna Abdullayeva**   
Farg'ona davlat universiteti o'qituvchi**Annotatsiya**

Maqolada lof janri va folklor ta'sirida yozma adabiyotda, xususan, bolalar she'riyatida lof she'arning yuzaga kelishi, bolalarning ichki olami, dunyoqarashi va bolalarcha o'y-fikrlarining namoyon bo'lishi, poetik xususiyatlari, ma'rifiy, badiiy-estetik mohiyat kasb etishi tadqiq qilingan. G'afur G'ulom, Tursunboy Adshboyev, Hamza Imonberdiyev, Abdurahmon Akbar va Dilshod Rajablarning lof she'rlari asosida tahlil amalga oshirilgan. Adabiy loflarning yaratilishida izdoshlik va o'ziga xoslik, ijodkorning uslubiy mahorati, individualigi qiyoslangan.

**Аннотация**

В статье под влиянием неправдоподобных детских стихов и фольклора рассматривается появление неправдоподобных стихов поэзии в письменной литературе, особенно в детской поэзии, проявление детского внутреннего мира, мировоззрения и детских мыслей, поэтические особенности, воспитательные, художественно-эстетические, обретение сущности, был изучен. Анализ проводился на основе хвалебных стихов Гафура Гулама, Турсунбая Адшбоева, Хамзы Имонбердиева, Абдурахмана Акбара и Дильшада Раджаба. В создании литературных дифирамбов сопоставляются последовательность и оригинальность, стилистическое мастерство и индивидуальность творца.

**Abstract**

In the article, under the influence of praise poems and folklore in written literature, children, children's poetry, the contract poetics of praise poems, the manifestation of children's inner world, worldview and childish thoughts, poetic features, educational, artistic and aesthetic. The acquisition of essence has been studied. The analysis was carried out based on the praise poems of Gafur Ghulam, Tursunboy Adshboyev, Hamza Imonberdiyev, Abdurahman Akbar and Dilshad Rajab. In the creation of literary praises, followership and originality, stylistic skills and individuality of the creator are compared.

**Kalit so'zlar:** Folklor, lof janri, ma'rifiy-estetik funktsiya, G'afur G'ulom, Tursunboy Adshboyev, Hamza Imonberdiyev, Abdurahmon Akbar va Dilshod Rajab, uslubiy mahorat.

**Ключевые слова:** Фольклор, лоф-жанр, воспитательно-эстетическая функция, Гафур Гулам, Турсунбой Адшбоев, Хамза Имонбердиев, Абдурахмон Акбар и Дильшад Раджаб, стилистические способности.

**Key words:** Folklore, praise poems, educational-aesthetic function, Gafur Ghulam, Tursunboy Adshboyev, Hamza Imonberdiyev, Abdurahmon Akbar and Dilshad Rajab, stylistic skills.

**KIRISH**

Bolalar adabiyotining asosiy vazifasi o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalashdir. Bu o'rinda bolalar she'riyatining o'rni beqiyos. Q.Qahramonov bugungi globallashuv davrida bolalar adabiyoti faqat tarbiya vositasi emas, balki undan bolalarning o'ziga xos ruhiy olamini izlash zarurligini alohida ta'kidlaydi. Shu bilan birga insoniy xarakter va o'ziga xosliklarni aks ettirish, inson obrazidan foydalanish va uning hayotidagi muammolarni, quvonch-u tashvishlarini ham mazmunan, ham shaklan go'zal tarzda ifodalash bugungi o'zbek bolalar she'riyatining bosh vazifasidir. Bugungi kunda bolalar ijod olamida lirik qahramon sifatida bolaning o'zi maydonga chiqdi, zero, insonlar bir-biriga oyna vazifasini bajaradi va o'rnak bo'la oladi. Yangi davr bolalar she'riyatida shakliy-mazmuniy yangilanishlar bilan birga xalq og'zaki ijodi bilan bog'liqlik jihatlarni ham ko'ramiz. Bunday she'rlarda lirik qahramon bolaning o'zi, uning ichki olami, dunyoqarashi va bolalarcha o'y-fikrlari, sho'xliklari aks etgan. Folklorning yozma adabiyotga ta'siri natijasida yuzaga kelgan bu yangilanish bolalar she'riyatiga o'ziga xoslik bag'ishladi.

**MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI**



## ADABIYOTSHUNOSLIK

Lof janriga xos badiiy-tasviriy usul bu voqelikni mubolag'alash asosida bayon etishdir. Lofda so'zga chechanlik, zukkolik, hozirjavoblik zohir bo'ladi. Uni aytish mubolag'ali epizodga mos javob qaytarish lofchidan o'tkir zehn, sinchkovlik, tajriba, so'zga chechanlik, uddaburonlik, hozirjavoblikni talab qiladi va musobaqa shaklida o'tadi. M.Sulaymonov ham lofchining so'zga chechanligi, zukkoligi va hozirjavoblik fazilati mazkur janrning tashkil topishida hal qiluvchi rol o'ynashini aytib o'tgan. Bu janrda tabiat va jamiyat hodisalari bo'rttirib ko'rsatiladi va kulgi hosil qilinadi. Loflar sujeti dialog asosiga qurilgan bo'lib, hajv va yengil yumorga moyilligi, voqea va hodisalar o'ta mubolag'ali tasvirlanishi bilan ajralib turadi. Mubolag'a va kulgiga asoslanishi bilan latifa va askiya janriga yaqin turadi. Lof asosan qiziqchi hamda askiyabozlar orasida shakllangan va ijro etilgan. O.Safarov lofning janriy tabiati haqida "uning tabiatida epiklik va dramatiklik o'zaro uyg'unlashib ketganligi tufayli lof epizodik og'zaki drama ekanligi ko'zga tashlanadi"[1.B.319], – deb ta'kidlaydi. Darhaqiqat, lofchilarning savol-javobi, o'zaro musobaqa tarzda boradigan holati, bu so'zamolikni kuzatib boruvchi, miriqib kuluvchi tomoshabini borligi, xalq qiziqchiligi tarkibida rivojlanganligi sabab og'zaki drama sifatida baholash mumkin.

– Yangi yilni oyda kutmoqchiman! – debdi lofchi maqtanib.

– Oyga borsangiz, – debdi dehqon lofchi, bo'sh kelmay, – men ekib kelgan qovuntarvuzlarni mazza qilib yeng-u, o'zimga ham ikkitasini ola keling"[2.320]. Ushbu lof sodda loflar sirasiga kirib, ikki lofchining dialogik nutqiga asoslangan. O.Safarov loflarni tuzilishiga ko'ra sodda va murakkabga ajratadi. Sujeti qisqa, lofchilar soni ikki kishini tashkil etsa sodda, aksincha bo'lsa murakkab loflar sanaladi. Yuqoridagi lof sodda loflar sirasiga kiradi. Xalq og'zaki ijodida lofning quyidagi xususiyatlari kuzatiladi: 1) an'anaviylik (nasriy ifodasi); 2) ikki kishi tomonidan aytilishi (dialogik nutqqa asoslanganligi); 3) savol-javob, musobaqa tarzda bo'lishi; 4) asosan qiziqchi va askiyabozlar orasida ijro etilishi; 5) raqiblar o'zaro so'zamolik bobida bir-biri bilan bahslashishi.

O'zbek bolalar adabiyotida ham lof janri xalq og'zaki ijodi ta'sirida yuzaga keldi. G'.G'ulom, T.Adashboyev, H.Imonberdiyev kabi ijodkorlar loflarni she'riy usulda yaratib, bolalar adabiyotini janr, shakl va mazmun jihatdan boyitdi. Dastlab, G'.G'ulom "Chaqchaqlashaylik" she'rida maqtanchoq, hovliqmaroq aldoqchi – lofchi bolalar obrazini yaratgan bo'lsa, T.Adashboyev ushbu an'anani davom ettirib, novatorona shakl va mazmunda lof she'rlar yaratadi. Shoirning "Arslonbob afsonasi"[2.B.145] to'plamidan o'rin olgan "Lof emas" she'ri 1981-yilda yozilib, 1982-yilda "Jo'nataman quyoshni" to'plamiga kiritilgan. Ushbu she'rda lirik qahramon chumolini taqalab qamish o'rdiradi, chigirtkalarini to'rttasini ot qilib, qog'ozdan qanot qilib, aravaga qo'shib, qamishlarni Oq saroy va Ko'k saroyga tashitadi, o'zi ham rosa mehnat qiladi.

Chumolini taqalab, / Asta anhor yoqalab.

Qamish o'rdim shir etib, / Chigirtkalar chir etib,

Tegavergach g'ashimga / Imlab qo'ydim Xoshimga.

To'rttasini ot qilib, / Qog'ozdan qanot qilib

Aravaga qo'shildi.

Ushbu lofda bolalar tafakkuriga mos hasharotlar obrazidan foydalanish, soddalik mavjud bo'lib, dialog va musobaqalashish ko'zga tashlanmaydi. Yosh bolalarning chegara bilmas xayolot olami, hamma ishni xayolda bajarib, qoyillatishi aks etadi. She'rdagi lirik qahramon tomonidan to'qilgan mubolag'a, uydirma yumorni yuzaga keltiradi. Shu to'plamdagi "Latifboyning loflari"(1985-y) she'rida Latifjonning xayolot olamidagi uydirma-loflari yosh kitobxonda yengil kulgini yuzaga keltiradi. Ushbu she'r "Oqbura to'lqinlari"[4.B.46] to'plamiga ham kiritilgan. She'rning dastlabki misralarida Latifjon azaldan lofchi bog'cha yoshidagi bola obrazida gavdalangan. Uni aldoqchi-lofchiligidan hamma "lof" deb chaqiradi. Ayni shu yoshdagi bolalar xarakter-psixologiyasida voqelikni bo'rttirib ifodalash ko'zga tashlanadi. Keyingi misralaridan Latifboy loflarini boshlaydi. U ignaga ip o'tkazuvchi asbob o'ylab topib, Uzro buvini xursand qilish, odamlarga ko'tarishga qulay bo'lgan tutqi-sopli yangi tarvuz navi yaratishi, guruchlarning kurmak va toshini teruvchi magnit yaratishi haqidagi kashfiyotlarini o'rtoqlariga so'zlaydi. Shu bilan birga adirlarni ko'rgach boshqa bolalardek lol qolmasligini, ularni tog'ning bolasimas, balki tuyaning o'rkachi deb bilishini maqtanib gapiradi. She'rning xulosa qismida Latifboyning lofchiligi O'ktam o'rtog'i tomonidan yana bir bor yodga solinadi. Ushbu loflar kimnidir aldash, musobaqalashish, o'zini ko'rsatish maqsadida emas balki bolalarga xos xarakter – odamlarga yordam berish maqsadidagi o'y-fikr va xohishlaridir. Mazmunida bolalarcha samimiylik, ezgulik mujassam, shu orqali bolalarga "har qanday ish qilsang



ham uning zamirida ezgulik bo'lsin", – degan tushunchani singdiradi. Lof she'rlar shoir tomonidan roli o'ynalayotgan Latifboy nutqi orqali tabiat va jamiyat voqea-hodisalarini bo'rttirib, kulgili tarzda obrazli ifodalash asosiga quriladi va Latifjon kashfiyotchi lofchi sifatida gavdalanadi. "Orzularim qo'sh qanotim" saylanmasi va "Latifboyning loflari" she'riy to'plamlarida sujeti kengaytirilib, loflar rivojlantirilib beriladi. Shoir boshqa ijodkorlardan farqli ravishda o'ziga xos bo'lgan so'zamol, uddaburon, hammaga yordam beruvchi lofchi Latifboy obrazini yaratdi. A.Oripov ta'kidlaganidek, "She'ni she'r qiladigan narsa obrazlilikdir". Ushbu fikr bolalar she'riyati uchun ham muhim, T.Adashboyev ham ushbu turkum she'rini bolalar tafakkuri va psixologiyasiga mos ravishda tasvirlaydi. "Saylanma"da "Uchqur tulpor" turkumi ostida har bir lof o'ziga xos "Ovning gashti", "Barchasi yodimda", "Poyga zavqi", "Beshta sanoch", "Shirmon kulcha", "Yugan solib, egar urib" tarzda nomlangan. Har bir lof alohida sujet qurilishiga ega bo'lsa-da, asosiy o'zanda, Latifboy obrazida birlashadi. Ushbu loflar mustaqil voqelik asosida bo'lib, bir-birini davom ettirmaydi va to'ldirmaydi. Go'yo bitta katta halqaga ilingan zanjirchalar misoli. Shuningdek, shoir "Uchqur tulpor" deb bejiz nomlamagan, boisi yosh kitobxon g'aroyb sarguzasht uydirmalar xayolotida uchib yuradi. "Yugan solib, egar urib" nomli lof she'rida ajoyib mubolag'alardan foydalangan, bunda bolaga xos tasvirlash usuli mavjud. Loflar asosan lirik qahramon muallif nutqi orqali, folklorda esa lofchi qahramonlarning o'z nutqi asosida dialogik qurilishda beriladi.

Quloq soling Latifboyning / Yana bitta ertagiga,  
Yugan solib, egar urib, / Chigirtkaning erkagiga.  
Qamishlardan nayza yasab, / Otquloqdan qalqon qilib,  
Yoy kamalak yelkasida, / Yonboshida guldor sadoq,  
Uzangini niqtab borar, / Latifboyning fe'li chatoq [5.B.19].

She'r shakliy va mazmuniy jihatdan ham novatorona usulda yaratilgan. Misralar alohida bandlarga ajralmay, tagma-tag tarzda yozilgan bo'lib, turoqlarning bir xil takrori ritmik ohangdorlikni ta'minlaydi. Loflarning o'ta mubolag'ali va bolalarga mos sarguzasht tarzda ifodalanishi mazmuniy o'ziga xosligi sanaladi. Bilamizki, sarguzasht asosan bolalar olamiga xos, shoir buni anglab Latifjonning uydirmalarini g'ayritabiiy sarguzashtlarga boy tarzda yaratadi. Ikkinchi misrada "Yana bitta ertagiga" jumlasidan Latifboy azaldan lofchi ekanligi anglashiladi. Bo'rttirib, mubolag'ali tasvirlash yumoristik kulgini yuzaga keltiradi. Shoir Latifboyning loflarini "ertak" deb boshlashi (*Quloq soling Latifboyning / Yana bitta ertagiga*) ham bejiz emas. Ertak ham uydirmaga asoslanadi, lof ham xuddi shunday, ammo lofda mubolag'a kuchli bo'lib, lofchidan so'zga chechanlikni talab qiladi. Ushbu lof she'rda tabiat yoki jamiyat hodisalarini ko'z ko'rib quloq eshitmagan bo'rttirishlar asosida kulgili tarzda ifoda etadi. Shoir Latifboyning jangga otlanganday tasvirlaydi. U "tulki ovi" jangiga otlangan. Latifboy mayda darrandalarni nazarga ilmay, Xayri xolaning tovug'ini yeb ketgan va begimotday semirgan tulkini ushlab uchun jangga chiqqan. She'rning sintez qismida tulkinging bir tovuqni yeb semirib, katta bo'lib ketganidan to'rt pahlavon terisini shilayotgani tasvirlangan. Bu mubolag'ali tasvirni shoir shunday ishonarli tarzda ifoda etganki, bu jarayon beixtiyor bolani ishontiradi. Tulkini terisi kattaligidan o'nta po'stin, quyruqidan esa qirqta telpak chiqqan. Shoir butunning qismini (tulkinging mo'ynasi va quyruqini) shunday bo'rttiradiki, tulkinging qanday kattalikda ekanligi tasavvurda ham hayratlantiradi.

Ikki quloq quyruqidan, / Tayyorladik qirqta telpak.

Bu misralardan mubolag'ani o'ta kattalashtirilgan holatini ko'ramiz. Mumtoz adabiyotda mubolag'aning bu turi g'uluv, jahon adabiyotshunosligida grotesk atamasi bilan ifodalanadi. Grotesk (ital. grotta-yer ostidagi uy)-badiiy adabiyot va san'atdagi obrazlilikning fantastika, kulgi va mubolag'aga asoslangan bir turi, uslub, badiiy usul. Groteskda reallik va xayolot, go'zallik va xunuklik, fojeaviylik va komiklik kabi bir-biriga zid jihatlar g'alati, ajabtovur bir tarzda birikib ketadi[6.B.84]. Ushbu lof she'rlarda reallik bolaning xayolot olami bilan birlashib ketgan bo'lib, fantastikaga moyillik ham sezilib turadi hamda yumorni yuzaga keltiradi. O.Safarov lofning kompozitsion asosini dialog tashkil etishini aytib o'tgan. T.Adashboyev loflarida esa dialog mavjud emas. Demak, ushbu holat ham o'ziga xoslikdir. Shoir she'ni boshlanishida Latifboyning ertagi ekanligiga ishora qilib, uni o'z nutqi (muallif nutqi) orqali ifoda etgan, bu o'ziga xos bir ko'rinish va yana bir jihati shundaki, ertak janrida lofni ifoda etmoqda. Buni "lof ertak" deb atashimiz mumkin. Bu ertakda Latifboyning jasurligi lof orqali ifoda etilgan va folklorga oid bo'lgan lof hamda ertakning qorishgan – sinkretik usuli novatorona tarzda namoyon qilingan. Lofchilik kichintoylar tabiatiga



## ADABIYOTSHUNOSLIK

xosdir. Chunki ular o'z o'rtoqlari bilan gaplashganda, albatta, mubolag'ali gaplardan foydalanadi. Ular qilgan ishlarini, ko'rgan-kechirganlarini bo'rttirib, suhbatdoshini lol qoldirib aytadi va bundan o'zi ham rohatlanadi. T.Adashboyevning lirik qahramoni Latifboy ham shunday tarzda namoyon bo'lgan. U ishtirok etgan voqealarni lof bilan bayon etadi. "Beshta sanoch" she'rida ham o'ta mubolag'ali holga duch kelamiz.

Yoshligidan o'ta abjir, / Chaqqon edi.

Bo'rdoqiga beshta chivin, / Boqqan edi.

She'ring bu qismida Latifboyning salbiy fe'l-atvori bilan birga ijobiy xarakteri – abjirligi, chaqqonligi obrazli tarzda namoyon etilgan. Chivinlarni xuddi bo'rdoqiga boqilgan jonzotday tasvirlaydi va ularni so'yish jarayoni ham katta hayvonlarga xos tarzda ifodalangan. Ushbu lof she'rida reallik va xayolot, kulgi va mubolag'a sintezlashgan holda fantastikaga moyil tarzda ifoda etilgan. Mubolag'aga asoslangan bu usuldan foydalanish bolaning tafakkur olamidagi o'zgachaliklarni, ularga xos obrazli tasvir vositalarini ifoda etadi. Har bir lof xronikali sujet asosida ifoda etilgan. Ushbu lof she'r xalq og'zaki ijodidagi "Qirq yolg'on" va "Uch yolg'onda qirq yolg'on" ertaklari singari sujet qurilishiga ega. Ushbu ertaklardagi yolg'onlar bir-biriga ulanib, davom etadi, biri ikkinchisini keltirib chiqaradi. Bu ertaklarga xos bo'lgan xususiyatlar shoir loflarida xalq og'zaki ijodiga xos an'anaviylikni namoyon bo'lganini bildiradi. R.Barakayev ham ushbu she'rlardagi xalq og'zaki ijodiga xos xususiyatlarni "Qirq yolg'on" va "Uch yolg'onda qirq yolg'on", "Burgam" tipidagi ertaklarga qiyoslaydi[7.B.47-48]. Shoir poetik mahoratining o'ziga xosligi yengil yumoristik kulgini yuzaga keltiruvchi uydirma, mubolag'a, majozilikdan bolalar tafakkuriga xos tarzda foydalanganligida ko'rinadi.

Xalq og'zaki ijodida lofchilar ikkita, G'G'ulomning lofchilari bir nechta bo'lsa, T.Adashboyevda birgina Latifboyning o'zi bo'lib, g'ayritabiiy uydirma harakatlari va bo'rttirmalari bilan kitobxonni hayratga soladi. Shoir loflarni birgina qahramon orqali ifoda etib, an'anaviylikdan chekingan holda o'ziga xos obrazda namoyon qilgan. Predmetlarni, hayvonot-u nabotot olamini kattalashtirib, bo'rttirib ko'rsatish asosida lofni yuzaga keltiradi.

**TAHLIL VA NATIJALAR**

Mubolag'aning g'uluv badiiy san'ati va groteskli tasvir usulidan mohirona foydalanadi. Latifboyning har bir lofiga alohida nom beradi va notabiiy voqealarni aks ettiradi. Tursunboy Adashboyevning lof she'rlarida quyidagi o'ziga xosliklar kuzatiladi: 1) she'riy tarzda, hikoya usulida ifodalangan; 2) muallif yoki lirik qahramon bola (Latifboy) obrazi orqali bayon qilingan; 3) monologik nutqqa asoslangan; 4) raqiblar bahslashuvi mavjud emas; 5) mubolag'a, g'uluv, groteskli tasvir usulidan keng foydalangan. 6) har bir lof alohida nomlar bilan ajratilgan, lekin lirik qahramon – lofchi birgina Latifboy bo'lib, so'zamol, uydirmaga boy, jasur yigit sifatida beriladi; g) murakkab sujet qurilishiga ega bo'lib sarguzasht tipida yaratilgan.

H.Imonberdiyev ham "Lofchilar-aldoqchilar" she'rini yaratib, lof janrini bir qadar rivojlantirdi va shu nom bilan she'riy to'plamini ham nashr ettirdi. Lofchilik mahorati folkloriga xos ikki kishi – Ali, Vali obrazlarida namoyon bo'lgan. Shoir bolalarning o'zini lirik qahramon sifatida tanlagan.

Ali, Vali lofchilar, / Xushchaqchaq aldoqchilar.

Rosa lofni urishar, / Ko'pikdan uy qurishar,

Maz-za qilib kulishar [8.11-12].

Shoir Ali, Vali obrazlarini bolalarga mos holda yaratgan. "Lofchi-aldoqchi" deyishi ham bejiz emas, aldoqchi so'zi o'ta salbiy bo'yoqdorlikka ega emas, balki biroz bolalarcha yolg'onga moyillikni ifodalash uchun xizmat qilgan. Birinchi misrada Ali va Vali azaldan lofchiligi anglashiladi. Lekin bu lofchilar salbiy xarakterga ega emas, balki bolalarcha samimiy, xushchaqchaq aldoqchilardir. O'zlari aytgan lofga mazza qilib kuladigan, beg'ubor, so'zamol, aqlli bolajonlardir. Ushbu lof she'rida Ali va Valining harakati kontrast asosiga qurilgan, ular bir-biridan o'zishga harakat qilib, lof to'qiydi, ya'ni o'rtalarida do'stona musobaqa tarzda sujet qurilishida ifoda etiladi. Har bir lof alohida bandlarda beriladi. Shoir she'ring tezis qismida quvnoq lofchi qahramonlarini tanishtirib o'tadi. Bu qahramonlarga ajoyib ohangdosh ism tanlaydi, bu yumorni yuzaga keltirish bilan birga bolaning xotirasida yaxshi saqlanadi, talaffuzga ham qulay. O.Safarov "Loflarda aksariyat hollarda qahramonlarning ismi o'zaro qofiyalangan bo'ladi. Masalan, Ali, Vali, Soli singari. Tovushlarning bunday uyg'unligi yumoristik kulgini yuzaga keltiradi"[9.B.320], – deb aytib o'tgan. H.Imonberdiyevning loflarida ushbu ifodaning mavjudligi xalq og'zaki ijodiga xos an'anaviylik



belgisini anglatadi. "Ko'pikdan uy qurishar" misrasining mazmunida beg'ubor, yengil uydirma ekanligi ham anglashiladi. Ikkinchi bandedan lofchilarning loflari boshlanadi. Ali o'ziga xos rasm chizadi va Valiga ko'rsatib maqtanadi. Uning rasmi shunday jonliki, chizilgan donlarni qushcha kelib yeb ketadi, hatto unga rahmat ham aytadi. Keyingi lofida Alining ajoyib iti borligini, vazifa qilib berilgan misollarni bemaol ishlashini, hatto "xo'jayin bemaol o'ynab oling, she'r yodlashmi, masalami, tortinmay bemaol menga aytavering", – deb Aliga yordam berishini aytadi. Vali qitmirlik qilib, ruchkani qanday ushlaydi, – deb savol bersa, hozirjavob Ali topqirlik va so'zamollik bilan "tishi bilan tishlaydi" – deb javob qaytaradi. Vali uning uydirmalaridan hayratga tushmay, xotirjam "bo'lishi mumkin", – deya javob qaytarib, o'zining loflarini boshlaydi.

Menda ham o'zi ishlar / Yangi avtoruchka bor

Masalami, misolmi / Bir zumda qilar tayyor.

Vali ham vaziyatdan chiqib keta oladi, u ham lofchilikda Alidan qolishmaydi. O'rtalarida so'z o'yiniga xoslangan holda uydirma-loflar musobaqasi savol-javob tarzda ifoda etiladi. Ushbu she'rda har bandeda berilgan lofdan so'ng, she'rning boshlanish qismidagi bandi naqorat tarzda beriladi. Bu ta'sirdorlikni oshiradi va bola xotirasida uzoq saqlanadi. Aldoqchilik, bo'rttirib gapirish (lof tarzda), bu gaplaridan maqtanish holati har bir bolajonda bor. Lof orqali bolalar xarakterining bir qirrasini yumoristik kulgi asosida ochib bergan. Shoir tomonidan roli o'ynalayotgan lirik qahramonlar to'qigan loflar xayolot mahsulidir. H.Imonberdiyevning loflarida biror predmet, joy yoki hodisa kattalashtirilib, bo'rttirilib ko'rsatilmaydi. Balki, so'zamolligi, zukko va topqirligi lofni yuzaga keltiradi. R.Barakayev "Jonajonim she'riyat" monografiyasida ushbu lof she'rga to'xtalib: "Shunisi qiziqki, "Lofchilar-aldoqchilar"ni o'qib, Ali bilan Valining yolg'onlaridan xafa bo'lmaysiz, chunki ular yolg'on aytib birovni aldamaydilar, balki xayollariga kelgan loflarni bir-birlariga aytish bilan go'yoki kim zo'rroq lof aytishga tarzda bahslashadilar. Ularning loflari beg'ubor, bu loflarning yolg'onligini o'zlari ham bilib turadilar, faqat mana shu kim o'zarga aytilgan loflardan bolakaylar o'zlaricha zavq topadilar"[10.B.58], – deb izohlaydi. Nafaqat o'zlari, balki kitobxonga ham zavq beradi, do'stona bahslashish yumoristik kulgini yuzaga keltiradi. T.Adashboyevning loflari ham hech kimga ziyon yetkazmaydi, uning qahramoni ham birovni aldamaydi, xafa qilmaydi, balki bolalarcha tasavvurini namoyon etadi. H.Imonberdiyevning lof she'ri dastlab 1981-yilda "Quvnoqlar quvonchi"[11.B.24] to'plamida, 1991-yilda "Lofchilar-aldoqchilar" nomli to'plamdan o'rin oldi, so'ng G'aroyibkent hangomalari (1994) to'plamida "Lofchilar"[12.55] nomli she'rida Ali va Valining loflarini yana davom ettirdi. Unda qahramonlar qo'lbola tayyora yasab Mirrix yulduziga, hatto, Quyoshga ham bir zumda chiqib tushganlarini obrazlilik asosida fantastik tarzda tasvirlaydi. Ali, Valini tanishtirish muallif nutqi, loflar esa lirik qahramon sifatida olingan bolakaylarning o'z nutqi orqali beriladi. Vali nutqidagi "bir qadamlik joy", "yetasan sovumay choy", "kuyib kul bo'lmadingmi" xalq og'zaki ijodiga xos iboralar loflarning badiiyatini yanada oshirgan. Ushbu obraz ham so'zamol, topqir, uddaburon aldoqchi obrazida namoyon bo'ladi. Lofchilar obrazi bilimdon, kashfiyotchi, sayohatchi sifatida gavdalanadi.

Folklor va G'afur G'ulom loflarida lofchi qahramonlar birdan ortiq, ushbu an'anani H.Imonberdiyev ham davom ettirib lof she'rlaridagi lirik qahramonlarni ikki – Ali va Vali obrazlarida namoyon qildi. T.Adashboyevning "Latifboyning loflari" she'rida birgina obraz – Latifboy kashfiyotchilikka moyil, uddaburon tarzda gavdalanadi. Shoir Latifboyning "xislatlari" bilan yosh kitobxonni tanishtirib boradi.

A.Akbar va D.Rajablar ijodida alohida lof janri mavjud bo'lmasa-da, lofga xos unsurlar: mubolag'a badiiy san'ati va so'zamol, hozirjavob, uddaburon bolalar obrazlari berilgan she'rlar mavjud. A.Akbarning "Kasalmand" she'ri bunga misol bo'ladi. She'rda Vahobjon obrazida aldoqchi-lofchi bolajonlar qiyofasi berilgan. Tezis qismida uning nutqi orqali yolg'onlari – goh oyog'i, goh boshi, goh qulog'ining og'risi (kasalligi) bo'rttirilgan. Ikkinchi bandeda bu holatdan jahli chiqqan aka obrazi orqali tanbehona savollar berilsa, uchinchi band – sintez qismida shu savollariga Vahobjonning topqirlik va uddaburonlik asosida berilgan javoblari ifoda etiladi.

– Og'rimagan joying ham / Bormi Vahobjon?–

Jahlim chiqib, qosh uyib, / So'rasam, shu on:

– Bor, – der yolg'onchi ukam, / Chekib "iztirob"

Va ko'rsatar tinog'-u / Sochini shu tob...[13.B.13]



## ADABIYOTSHUNOSLIK

She'r dialogik nutq asosiga qurilgan. Bu she'rdagi mubolag'a, hozijavoblik, uddaburonlik asosida vaziyatdan chiqib ketish, yumorning mavjudligi lofga xos unsurlardir. Shoimning "Ukam tush ko'rgan emish" she'rida tushida akulalarni yenggan bola obrazi, "Xayolparast" she'rida esa lofga xos mubolag'ali tasvirlar – to'rtburchak tog'larni cho'kich bilan o'yib oshib o'tmoqchi bo'lgan, qaynoq yomg'irlarda qolgan, yomg'ir suvidan ko'l dengizga aylanganini ko'rgan va shu suvlardan xovuchlab ichgan bola obrazi orqali beriladi. Ushbu mubolag'ali tasvir bolaning xayolida, "Uyquchining tushlari" she'rida esa Muzaffarning tushlarida ro'y beradi. Ushbu she'rda narsa-buyum va hasharotlar hamda voqelik mubolag'a asosida beriladi.

Mushtdek-mushtdek arilar / Nishin sanchdi bo'ynimga.

Vishillashib ilonlar / Kirib oldi qo'ynimga.

Muzaffar mushtdek arilar, vahshiy ilonlar va ajinalardan qochib, o'zini qaynoq suvli soyga otadi, hatto qushlar ham uni cho'qimoq bo'lib kelishadi. Yosh kitobxon ushbu tasvirlarni xayratlanib, biroz hayajon va qo'rquv bilan o'qiydi. To'rtinchi badda bu voqealar lirik qahramonning tushida bo'layotgani oydinlashadi va yumoristik kulgini yuzaga keltiradi.

Oymomaga urvoldim / Peshonamni shu fursat...

...O'n birni ko'rsatardi / Uyg'onganimga soat.

Bu misralar orqali uyquchi bola obrazi gavdalangani oydinlashadi. Shoir tush epizodini olib kiradi, ya'ni mubolag'ali tasvir lirik qahramonning tushi orqali beriladi. Shoir lof she'r deb nomlamasa-da, bu janrga xos bo'rttirish-mubolag'ali tasvir mavjud. T.Adashboyev singari loflar birgina qahramon nutqi orqali beriladi. Bo'rttirishlar bandma-band ortib boradi. She'rning sintez qismida tush jarayoni ekanligining berilishi shoir uslubining o'ziga xosligini belgilaydi.

D.Rajabning "G'aroyib sayr" nomli she'rida ham lofga xos xususiyatlar ko'zga tashlanadi. She'rda hayvonot bog'ida yuz bergan g'ayritabiiy mubolag'ali tasvirlar maqtanchoq bola tilidan beriladi. Lirik qahramon – shoir tomonidan roli o'ynalayotgan xayolparast, maqtanchoq bola. Bolalarga xos bo'lgan xarakter, psixologik holat mubolag'ali, yumoristik tarzda aks etgan. Tezis qismi – dastlabki to'rt misrasida voqea joyi va she'r mazmunining qanday borishiga ishora beriladi.

Timsohlar jim ko'z tikib, / Qo'rqa-pisa mo'ltirar.

Ulkan fillar bosh silkib, / Muloyim hol so'rashar.

Naq pahlavon sezaman, / O'zimni shu nafasda.

...Buncha sehr kuch qaydan / Oddiy simto'r qafasda[14.B.19].

Antitezis qismida mubolag'ali tasvirlar ifoda etiladi, so'nggi to'rt misrada xayolparast, so'zamol qahramon bolajonning bunday yaxshiy hayvonlar makonida qanday qilib bimalol yurishi ochiqilanadi. She'r yakuniga yetguncha yosh kitobxon hayrat va qiziqish bilan o'qiydi. Kutilmagan xulosa yumorni yuzaga keltiradi. She'rda predmet, jonzotlar, tabiat hodisalarini bo'rttirib ko'rsatish mavjud emas, balki lirik qahramon bolaning aytganlari mubolag'ali tasvir bo'lib, lofga xos jihatlar sanaladi. Lofchi bola obrazi so'zamol, biroz maqtanchoq, xayolparastligi bilan lofchi obrazlar sirasiga kiradi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Bolalar adabiyotida lof janrining badiiy-tarbiyaviy ahamiyati adabiyotga qiziquvchanligini oshiradi, so'zga chechanlik va topqirlikni yuksaltiradi, tabiat hodisalarini, hayot bilan xayolni farqlaydi va undagi yuz beradigan voqea-hodisalarini anglab yetadi, ularni bir-biri bilan solishtiradi, shu bilan birga dunyoqarashi, fikrlash doirasi kengayadi, bolakaylarda yengil kulgini yuzaga keltiradi.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – Toshkent: Musiqa, 2010. – B.319.
2. Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – Toshkent: Musiqa, 2010. – B.320.
3. Adashboyev T. Arslonbob afsonasi. – Toshkent: Esh gvardiya, 1988. – B.145.
4. Adashboyev T. Oq'ura tulqinlari. – Toshkent: Esh gvardiya, 1985. – B.46.
5. Adashboyev T. Latifboyning loflari. – Toshkent: Sharq, 2007. – B.19.
6. Kuronov D va boshqalar. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: Akademnashr, 2013. – B.84.
7. Barakaev P., Ashurov B. Tursunбой Adashboyev fenomeniga bir nazar. – Toshkent: Akademnashr, 2014. – B.47-48.
8. Имонбердиев Ҳ. Лофчилар - алдоқчилар. – Toshkent: Чўлпон, 1991. – B.11-12.
9. Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – Toshkent: Musiqa, 2010. – B.320.
10. Barakaev P. Жонажоним шеърят. – Toshkent: Чўлпон, 1997. – B.58.



11. Имонбердиев Ҳ. Қувноқлар қувончи. – Тошкент: Ёш гвардия, 1981. – Б.24.
12. Имонбердиев Ҳ. Фаройибкент ҳангомалари. – Тошкент: Чўлпон, 1994. – Б.55.
13. Абдурахмон Акбар. Фаройиб автобус. – Тошкент: Ўқитувчи, 2012. – Б.13
14. Dilshod Rajab. Вахши bola – yaxshi bola. – Toshkent: O'qituvchi, 2016. – B.19.